Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 10-dekabr, № 263 (8606) Yakshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI XODIMLARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli dehqon va fermerlar, qishloq xo‘jaligi xodimlari!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlar orqali o‘z hayotini qishloq xo‘jaligi sohasiga bag‘ishlagan barcha zahmatkash insonlarni, butun xalqimizni qutlug‘ bayram — **Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni** bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, hozirgi o‘ta murakkab iqlim sharoitida ko‘plab sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan, yerdan mo‘l hosil yetishtirish — bu chinakam jasorat va matonat namunasidir.

Xalqimiz sizdek mirishkor dehqon va fermerlar, mohir suvchi va irrigatorlar, o‘z ishining haqiqiy ustasi bo‘lgan mexanizator va agronomlar, tajribali chorvador va pillakorlar, jonkuyar olim va tadqiqotchilar, klaster xodimlari timsolida ana shunday fidoyi insonlarni ko‘radi va el-yurt dasturxonini to‘kin qilish yo‘lidagi sharafli va oliyjanob mehnatingizni yuksak qadrlaydi.

Aynan sizlarning sa’y-harakatlaringiz bilan qadimiy an’analarga ega bo‘lgan o‘zbek dehqonchilik maktabi rivojlanmoqda, agrar soha taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buning tasdig‘ini bu yil mamlakatimizda ilk bor 8 million 200 ming tonna g‘alla, 3 million 800 ming tonna paxta, 15 million tonnadan ortiq sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 26 ming tonna pilla yetishtirilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Ana shunday fidokorona mehnat va ulkan natijalar uchun sizlarga el-yurtimiz nomidan har qancha tahsin va tasannolar aytsak arziydi, albatta.

Aziz do‘stlar!

Xabaringiz bor, keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizda asosiy e’tiborni suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish, xo‘jalik va korxonalarning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng muhimi, dehqon va fermerlarning og‘irini yengil qilishga qaratmoqdamiz. Shu maqsadda 800 dan ziyod agroklasterlar tashkil etildi. Bugungi kunda paxta va g‘allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizdan ortig‘i aynan ular tomonidan yetishtirilmoqda.

Bu yil dala mehnatkashlariga 10 ming 500 dan ortiq yuqori unumli texnika va agregatlar yetkazib berildi. Sohaga raqamlashtirish jarayonlari, tomchilatib sug‘orish texnologiyalari, innovatsiyalar jadal kirib bormoqda.

Cho‘llanish, yerlarning sho‘rlanishi va degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproq unumdorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kungacha 500 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilib, 3 milliard kub metr suv iqtisod qilingani va qariyb 1 million gektar yerning suv ta’minoti yaxshilangani ana shunday sa’y-harakatlarimiz natijasidir. Joriy yilda qo‘shimcha ravishda 100 ming gektar yer foydalanishga kiritilib, oziq-ovqat ekinlari ekilgani, mevali bog‘ va tokzorlar barpo etilgani yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sohadagi ana shunday o‘zgarishlar jarayonida aholi daromadlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda oxirgi ikki yilda 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, 670 ming nafar yurtdoshimizga tanlov asosida berildi. Natijada 2 milliondan ortiq doimiy va mavsumiy ish o‘rinlari yaratilib, qo‘shimcha 3 million tonna mahsulot yetishtirildi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ham muhim vazifalarni belgilab oldik. Jumladan, resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot tannarxini 30 — 35 foizga tushirish, suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlarni 1 million 500 ming gektarga yetkazish, sifatli va serhosil navlarni, zotdor chorva naslini ko‘paytirishga, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Biz ana shunday mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirishda sizlar kabi katta bilim va tajribaga ega, mirishkor va omilkor insonlarga tayanamiz.

O‘z navbatida, davlatimiz va jamiyatimiz sohani yanada ravnaq toptirish, sizlarning sharafli mehnatingizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qishloq ahlining hayotini obod va farovon qilish uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etadi.

Siz, azizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor qutlab, jonajon yurtimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish yo‘lidagi ezgu faoliyatingizda ulkan yutuqlar tilayman.

Xonadonlaringizni xursandchilik, tinchlik-xotirjamlik va fayzu baraka hech qachon tark etmasin!

Doimo sog‘-omon bo‘ling, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

EL-YURT DASTURXONINI TO‘KIN QILISH YO‘LIDAGI SHARAFLI VA OLIYJANOB MEHNAT

Prezidentimiz rahnamoligida agrar sohani tubdan isloh qilish borasida ulkan sa’y-harakatlar olib borilyapti va buning samarasi o‘laroq bu yo‘nalishda ilgari kuzatilmagan muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga innovatsiya, intensiv va resurs tejovchi texnologiyalar, qolaversa, zamonaviy, jahon tajribasida sinovdan o‘tgan fan-texnika yutuqlarining joriy etilayotgani bunda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ammo tan olish kerak, Markaziy Osiyoda havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘pligi agrar sohani izchil rivojlantirishga salbiy ta’sir o‘tkazayotir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BAAda uyushtirilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi (SOP28) nutqida alohida ta’kidlab o‘tdi.

Unda aytilganidek, favqulodda issiq kunlar soni ikki marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qoldi. Tuproqning yemirilish jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilmaxillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham sodir bo‘layotgan bunday iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tobora tanqislashib borayotgani, cho‘llanish darajasining oshishi ko‘p tarmoqli agrar soha mehnatkashlari va olimlari oldiga ko‘plab muammolar yechimini topish masalasini qo‘ymoqda.

Bunday tabiiy xavf-xatarlar oldini olishning birdan-bir yo‘li tuproq unumdorligini oshirish, sohani resurs tejaydigan va yuqori unumli yangi texnikalar bilan uzluksiz ta’minlab borish, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida agrotexnologiyalardan foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Shundagina biz haqiqiy bozor mexanizmlarini joriy qilishga, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga muvaffaq bo‘lamiz. Albatta, bunda yetuk bilimga ega mutaxassislar tayyorlash oldimizdagi ustuvor vazifa ekanini ham hech qachon yoddan chiqarmaymiz. Binobarin, bugun fidoyi dehqonlarimiz o‘zlari to‘plagan boy tajribalarni ishga solib, ilg‘or texnologiyalarni sohaga keng joriy etgan holda iqlim o‘zgarishlari va suv taqchilligini mardonavor yengib, astoydil mehnat qilmoqdalar.

2

Bugun — O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun

OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR

Davlatimiz madhiyasida insonni sehrlovchi, eng ezgu tuyg‘ularni junbushga keltiruvchi sohir qudrat va joziba bor.

Ayniqsa, xalqaro shaxmat musobaqalarida qatnashib, O‘zbekiston sharafini himoya qilish, shohsupaning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilganda davlatimiz madhiyasi yangrashi hayotimizdagi bir umr unutilmas lahzalardir. Zotan, davlatimiz madhiyasining jozibasi, sehri o‘zgacha. Sportchi bo‘lganim bois bunday baxtni ko‘p bora his etib, shu yurtning farzandi sifatida qalbim hamisha faxr- iftixorga to‘ladi.

Mamlakatimizda har yili 10-dekabr — O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun sifatida nishonlanishi zamirida ham ana shunday tuyg‘u mujassamdir.

Yurtimizda sportning shaxmat turi rivojiga alohida e’tibor berib kelinadi. Natijada mamlakatimiz shaxmatchilari xalqaro miqyosdagi musobaqalarda yuksak marralarni qo‘lga kiritmoqda. O‘zimga kelsak, o‘n besh yoshimda shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston chempioni bo‘ldim, o‘n olti yoshimda Markaziy Osiyo yoshlari orasida ilk bor xalqaro grossmeyster maqomiga erishdim.

2022-yili Vatanimiz mustaqilligining 31 yilligi bayrami arafasida Hindistonning Chennay shahrida o‘tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida “chempion” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lganimiz madhiyamizda aytilganidek, olamni o‘zbek diyoriga mahliyo etdi, desak, mubolag‘a bo‘lmas. Boisi har ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan va bu gal 188 ta jamoa ishtirok etgan ushbu nufuzli shaxmat musobaqasi o‘zbek sporti tarixida yangi sahifa ochdi. Bu, tom ma’noda bir maqsad — yangi O‘zbekistonning yangi kelajagini, uning nurli istiqbolini yaratishga azmu qaror qilgan xalq vakillarining jipsligi, hamjihatligi timsoli bo‘ldi. Ayniqsa, so‘nggi o‘yindagi muvaffaqiyatim O‘zbekiston terma jamoasining tarixiy g‘alabasini ta’minlagani va o‘sha lahzalarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev telefon orqali biz bilan muloqot qilgani g‘oliblik shukuhini oshirib, bizga juda katta rag‘bat bag‘ishladi.

Bilasiz, yaqin-yaqingacha shaxmat musobaqalarida dunyoda Hindiston, AQSH, Armaniston, Niderlandiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlar vakillari tengsiz hisoblanardi. Keyingi yillarda yurtimizda shaxmat musobaqalari ko‘p o‘tkazilayotgani bois mahoratli grossmeysterlarimizning xalqaro turnirlarda olamshumul natijalarga erishayotganligi e’tiborli bo‘lmoqda.

3

O‘ZBEKISTON XALQINING FAXRU IFTIXORI

Shu kunlarda mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kunga bag‘ishlab vatandoshlar, diaspora va hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Xususan, mamlakatimiz elchixonalari, Bosh konsulliklari va xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalarida davra suhbatlari, brifinglar va boshqa tadbirlar o‘tkazilib, ularda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati qatnashchilarga yetkazilmoqda.

Madhiyamizda xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va shonli o‘tmishimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg‘ular tarannum etilgan. Madhiyamiz, shubhasiz, butun xalqimizning faxru iftixoridir.

Uchrashuvlarda, shuningdek, 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston madhiyasi kuchli demokratik davlat barpo etishning muhim bosqichlaridan biri bo‘lgani ta’kidlanmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan madhiya matni va musiqasi tasdiqlandi. Davlat madhiyasining muallifi O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov bo‘lib, musiqasini O‘zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan.

3

Biz va jahon

SAUDIYA ARABISTONI O‘ZBEKISTONNING KATTA NUFUZ VA MOLIYAVIY-IQTISODIY SALOHIYATGA EGA BO‘LGAN MUHIM HAMKORI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-noyabr kuni Saudiya Arabistoni Podshohligi investitsiyalar vaziri Holid al-Falih boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Unda O‘zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va keng ko‘lamli sheriklikni yanada kengaytirish, jumladan, oliy darajadagi kelishuvlarni so‘zsiz amalga oshirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Saudiya Arabistoni Podshohligi bilan munosabatlarni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi yangilangan tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Saudiya Arabistoni O‘zbekistonning nafaqat arab-musulmon mamlakatlarida, balki butun dunyoda katta nufuz va moliyaviy-iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan muhim sherigi hisoblanadi. Saudiya Arabistoni Podshohligi O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan (1991-yil 30-dekabr).

Ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi yangi bosqich

Prezident Shavkat Mirziyoyevning podshoh Salmon bin Abdulazizning taklifiga binoan 2017-yil 20-21-may kunlari Arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammitida ishtirok etish uchun Saudiya Arabistoni Podshohligiga tashrifi o‘zaro aloqalar rivojiga qo‘shimcha turtki bo‘lib xizmat qildi va ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi muhim bosqich bo‘ldi. Shundan buyon ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar amaliy mohiyat bilan boyitilib, ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Oliy va yuqori darajadagi muntazam aloqa hamda almashinuvlar hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

Mamlakatimiz rahbari 2022-yilning avgustida Saudiya Arabistoniga tashrifi chog‘ida valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon Ol Saud bilan muzokara o‘tkazdi. Uning natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bilan Saudiya Arabistoni Podshohligi o‘rtasida keng qamrovli sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish to‘g‘risida Qo‘shma bayonot, shuningdek, energetika, bojxona, fuqaro aviatsiyasi, turizm, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, mehnat munosabatlari sohalarida 15 ta hujjat qabul qilindi.

3

Munosabat

BAG‘RIKENGLIK TAMOYILI ASOSIDA

Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining tinch, osuda va farovon hayotini ta’minlash, yashash sharoitini tubdan yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zotan, davlatimiz rahbarining yangi g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan insonparvarlik siyosati asosini xalqimizning tub manfaatlari tashkil etadi hamda bu siyosat bevosita shu manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan. O‘tgan davrda yurtimizda amalga oshirilgan izchil islohotlar shunchaki raqamlarda emas, balki aholining kundalik hayotida namoyon bo‘layotir.

Inchunin, oxirgi yetti yilda insonga bo‘lgan e’tibor va munosabat tubdan o‘zgardi. To‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni kechirish va sog‘lom hayotga qaytarish, oila, mahalla va jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlash borasida salmoqli ishlar qilindi. Muhim sanalar arafasida to‘g‘ri yo‘ldan adashib, xatoga yo‘l qo‘ygan, ammo qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga o‘tgan ko‘plab shaxslar afv etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yilligi arafasida Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmon davlatimiz rahbarining buyuk insonparvarlik siyosatidan dalolat.

Mazkur Farmonga muvofiq, Konstitutsiyamizning 109-moddasi 23-bandiga asosan, sodir etgan jinoyati uchun jazoni ijro qilish muassasalari va probatsiya organlarida jazo o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan 334 nafar shaxs afv etildi. Bu — shuncha oilaga quvonch, shodlik va umid olib kirdi, degani.

Afv institutining afzalligi, ikki tomon manfaatlari uchun adolatli yondashuv bo‘lib, jabr yetkazuvchi va jabr ko‘ruvchilar manfaatini bir xilda himoya qiladi. Eng muhimi, bu akt uning nomidayoq bayon etilganidek, qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan mahkumlarga nisbatangina qo‘llaniladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu Farmoni qanchadan-qancha insonlarga, ularning oilasi va yaqinlariga haqiqiy bayram tuhfasi bo‘ldi. Zero, hujjatga muvofiq, bilib-bilmay jinoyat sodir qilib, jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan shaxslar afv etildi.

Ushbu xayrli ish Bosh qomusimiz qabul qilinganining 31 yilligi bayrami arafasida amalga oshganida ham chuqur ma’no bor. Bu — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etishni amalga oshirish bo‘yicha konstitutsiyaviy vakolatini ro‘yobga chiqarishining yorqin dalilidir.

4

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2023-yil 10-dekabr

EL-YURT DASTURXONINI TO‘KIN QILISH YO‘LIDAGI SHARAFLI VA OLIYJANOB MEHNAT

1 Ayonki, dehqon ahli erta bahordan to kech kuzgacha tabiat bilan tillashib, har qanday ob-havo sharoitida ham ekinlardan yuqori hosil yetishtirish harakatida bo‘ladi. Shu yil boshida bo‘lgan anomal sovuq, bahor oylaridagi kuchli jala va seryog‘in ko‘klam, yoz chillasining haddan tashqari issiq kelishi, obihayotning yildan-yilga kamayib borishi dehqonu fermerlar uchun jiddiy noqulayliklar tug‘dirgani rost.

Bunda, albatta, Prezidentimizning qishloq xo‘jaligi rivojiga qaratayotgan alohida e’tibori, dehqon va fermerlarga yaratilayotgan imtiyoz va yengilliklardan unumli foydalangan holda agrar sohaning barcha tarmog‘ida oldingi yillardagiga nisbatan salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, dehqonlarimiz joriy yilda 3 mln. 800 ming tonna paxta, 8,5 mln. tonna g‘alla yetishtirdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim hisoblangan 15 mln. tonnadan ortiq sabzavot-poliz, 5 mln. tonna meva va uzum, 4 mln. tonna kartoshka hosili olindi. Qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida ham o‘sish yuqori bo‘lgani tahsinga sazovor.

Bu muvaffaqiyatlarda joriy yilda agrar sohada bir qator ma’muriy islohotlar amalga oshirilgani, qishloq xo‘jaligi boshqaruvidagi tarqoq funksiyalar, vazifalar va vakolatlar yagona tizimga uyg‘unlashtirilganining ahamiyati juda muhim rol o‘ynadi, desak, sira mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Ayni chog‘da qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni, xususan, chorvachilik va issiqxona xo‘jaliklarini, paxta-to‘qimachilik klasterlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, xomashyo bazasini kengaytirish va eksport hajmini oshirish, agrar sektorni zamonaviy, resurstejamkor texnikalar bilan ta’minlashni rag‘batlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etilgani qo‘l kelmoqda. Shuningdek, mahsulot yetishtiruvchilarda ixtiyoriylik asosida ekinlarni mustaqil joylashtirish, davlat idoralari aralashuvini bekor qilish, fermerlarga erkinlik berish bo‘yicha tegishli qarorlar chiqarilgani ham

yutuqlarga poydevor bo‘lyapti.

Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslanib agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirishni moliyalashtirish tizimining tubdan isloh qilinishi ham o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Asosiy masalalardan biri bo‘lgan tuproq unumdorligini oshirish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi va soha ekotizimining barqarorligini saqlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar natijasida ekinlar hosildorligi ortib borayotgani kuzatilayotir. Misol uchun, 2023-yilda 100 ming gektar yerning tuproq tarkibi yaxshilanib, qayta foydalanishga kiritildi va bu yerlarga oziq-ovqat ekinlari ekildi, mevali bog‘ va tokzorlar barpo etildi. Natijada tuproqlarimiz unumdorligi oshib, hosildorlik paxtachilikda 10 foiz, g‘allachilikda 20 foiz, sabzavot-poliz ekinlarida 25 — 30 foizgacha ortdi.

Bilasiz, mamlakatimiz aholisi yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Bu borada xalqimizni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash barobarida yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha ham tizimli ishlar uddalanyapti. Masalan, so‘nggi ikki yilda qishloq aholisi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida 200 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, 670 ming nafar fuqaroga bo‘lib berildi. Buning samarasi o‘laroq qariyb 2,2 mln. mavsumiy va doimiy ish o‘rinlari yaratilib, qo‘shimcha 3 mln. tonna mahsulot yetishtirildi. Bu, albatta, elimiz dasturxonining fayzli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng katta yutuqlarimizdan biri sifatida alohida e’tirof qilish joizki, 2023-yilda qishloq xo‘jaligida 3 mln. nafar aholining bandligi ta’minlanib, daromad manbai yaratildi. Muhimi ham aslida shu: bandlik bor joyda daromad bo‘ladi, daromad esa farovonlikka yetaklaydi.

Xalqimiz isrofgarchilikni kechirmaydi. “Bir mayizni qirq bo‘lib yegan” degan ibora bejiz paydo bo‘lmagan. Ammo tan olish kerak, bundan 20 — 30 yil muqaddam va undan oldin ham meva-sabzavotlarni saqlash, qayta ishlash, yaqin-olis bozorlarga yetkazish masalalari nihoyatda qiyin ish edi. Pishib yetilgan meva va uzumning uchdan bir qismi to‘kilib, nobud bo‘lar edi. Endilikda qishloq joylarda ham zamonaviy savdo, logistika markazlari, mahsulotni chuqur qayta ishlash, saqlash korxonalarining soni ortib borayotgani isrofgarchilikka chek qo‘ydi. Pirovardida xalqimizni yil bo‘yi yangi uzilgandek saqlangan meva-sabzavot bilan ta’minlash imkoniyati yaratildi. Bu xizmatning joriy etilishi agrar sohaning rivojlanishiga va eksport imkoniyatlarining kengayishiga puxta zamin yaratmoqda. Joriy yilda meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvatlari 3,3 mln. tonnaga, agrologistika markazlari soni 76 taga va quvvati esa qariyb 1 mln. tonnaga yetkazilgani quvonarli, albatta.

Bu yil mamlakatimiz sohibkorlari saksonga yaqin xorijiy davlatlarga qiymati qariyb 1,5 mlrd. dollardan ortiq mahsulotlarni eksport qilishga muvaffaq bo‘ldi. Serquyosh zaminimizda pishib yetilgan turli noz-ne’matlar dunyoning barcha qit’asiga yetib bormoqda.

Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining barcha tarmog‘ida, jumladan, paxtachilik, g‘allachilik, to‘qimachilik, kasanachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, pillachilikda 800 dan ortiq agroklasterlar faoliyat yuritmoqda. Paxta va g‘allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining 60 foizidan ortig‘i aynan klaster usulida yetishtirilayotir. Ishlab chiqarish jarayonida bu maqbul usul tobora takomillashib bormoqda.

Davlatimiz rahbari 9-noyabr kuni paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash va yerlar hosildorligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida shular xususida batafsil to‘xtalib o‘tdi, yangi taklif va tashabbuslarni o‘rtaga tashladi. Xususan, klasterlar va fermerlar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilanmoqda. Bundan buyon fermerlar bir viloyat hududidagi istalgan klaster bilan fyuchers shartnomasi tuzishi mumkin bo‘ladi. Xullas, tizimdagi yangiliklar soha ravnaqini belgilab, kelgusi yilda paxta tolasi to‘liq qayta ishlanib, qiymati 9,6 mlrd. dollarga yetkaziladi. Eksport miqdori esa 4,5 mlrd. dollarni tashkil etishiga erishiladi.

Sohada zamonaviy yuqori unumli qishloq xo‘jaligi texnikalarining o‘rni beqiyos. Xalqimiz “Texnika — dehqonning qanoti” deb bejiz aytmaydi. Bu borada sohada texnika ta’minotini yaxshilash maqsadida joriy yilning o‘zida 2,5 trln. so‘mlik 10,5 mingdan ortiq yuqori unumli texnika va agregatlar klaster, fermer va dehqonlarga yetkazib berildi. Pirovardida chigit ekish mavsumi 20 kundan 8 kunga, g‘alla o‘rimi mavsumi 30 kundan 16 kunga qisqarib, shudgorlash ishlarini 20 — 25 kunda yakunlash imkoniyati yaratildi. Ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi natijasida bu yil yetishtirilgan paxta hosilining 25 foizi terim mashinalari yordamida saranjomlab olindi.

Chorvachilikda ham yangi tizimga o‘tilib, davlat tomonidan chorvadorlarimizga katta imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda. Joriy yilda xorijiy mamlakatlardan yurtimizga 70 ming bosh naslli qoramol, 180 ming bosh qo‘y-echki va 2 mln. bosh jo‘ja keltirildi. Bu chora-tadbirlar natijasida respublikamizda zoti yaxshilangan qoramollar ulushi 74 foizga, hududlarda yirik chorvachilik komplekslari soni esa 540 taga yetkazildi. Vaholanki, ularning soni 2019-yilda atigi 50 tani tashkil etardi. Bozor va do‘konlarda go‘sht hamda sut mahsulotlari turlari ko‘pligi, narx-navo mo‘tadilligi mana shu kabi sa’y-harakatlar mahsulidir.

Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi agrar tarmoqni jadal raqamlashtirish masalasiga ham davlatimiz tomonidan katta e’tibor qaratib kelinayotir. O‘tgan ikki yilda yangi 10 ta axborot va geoaxborot tizimi joriy qilinib, sohada ma’lumotlarning aniqligini oshirish, ma’lumot yig‘ish jarayonlarida inson omilini qisqartirishga erishildi. Bu boradagi ishlarimiz kelgusida ham izchil davom etadi.

Qolaversa, qishloq xo‘jaligi sohasining ko‘p ming sonli mehnatkashlari zimmasida xalqimizni turli noz-ne’matlar bilan uzluksiz ta’minlash, mahsulot yetishtirish miqdorini oshirib borish kabi ko‘plab ustuvor masalalar turibdi. Men shu sohaning vakili sifatida zahmatkash dehqonlarimiz, sabotli va fidoyi olimlarimiz mas’uliyatli hamda sharafli vazifalarini bundan keyin ham sidqidildan ado etishlariga ishonaman.

Ibrohim ABDURAHMONOV,
O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi vaziri.

HAQIQIY VATANPARVARLAR BAYRAMI

Kecha Toshkent davlat agrar universitetida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri o‘tkazildi.

Unda vazirlik tizimi tashkilotlari rahbarlari, boshqarma boshliqlari, agrar soha fidoyilari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Ta’kidlanganidek, Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 25-avgustda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni etib belgilangan. Shundan buyon mazkur sana agrar sohada mehnat qilayotgan soha xodimlari tomonidan keng nishonlab kelinmoqda.

Anjumanda bayram munosabati bilan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning soha xodimlariga yo‘llagan tabrigini Prezidentning Matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi. Tabrikdagi “biz har qarich yerdan hamda har tomchi suvdan unumli foydalanadigan, doimo izlanib, o‘ziga xos tajriba yaratgan insonlarni haqiqiy vatanparvar sifatida qadrlaymiz” degan so‘zlar soha xodimlari tomonidan gulduros qarsak bilan qarshi olindi.

Binobarin, bayram tadbirida ta’kidlanganidek mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 2016 — 2023-yillarda 400 ming gektardan ortiq paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, oziq-ovqat ekinlari joylashtirildi. 2017 — 2023-yillarda 156,6 gektar yangi mevali bog‘lar va 157,7 ming gektar yangi uzumzorlar barpo etildi. Umuman olganda, davlatimizning qishloq xo‘jaligi ravnaqiga qaratayotgan alohida e’tibori, dehqon va fermerlarga berilayotgan imtiyoz va yengilliklar tufayli barcha tarmoqda salmoqli yutuqlarga erishilayotir.

Tadbirda soha rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda qishloq xo‘jaligi xodimlari O‘zbekiston Respublikasi “Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, yil boshida e’lon qilingan tanlovda turli nominatsiyalar bo‘yicha g‘olib chiqqan eng ilg‘or soha xodimlariga diplom va esdalik sovg‘alari taqdim etildi.

“Xalq so‘zi” fotojamlamasifan.

Anjumanda yangragan san’at ustalari va yosh xonandalar ijrosidagi kuy-qo‘shiqlar, raqslar bayram shukuhiga shukuh qo‘shdi.

F. XUDOYBERDIYEV
(“Xalq so‘zi”).

MIRZACHO‘L QOVUNLARINING DOVRUG‘I

Sirdaryo viloyati dehqonchiligi, uning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan polizchiligi yetti iqlimga ma’lum va mashhur. Shu ma’noda aytganda, polizchilik mahallamiz ahli hayotini farovon qilibgina qolmay, mahalla nomini uzoqlarga ham tanitmoqda.

Masalan, eksport qilinayotgan qovun qoqilarning yorlig‘ida “Oqchangal mahallasi” degan yozuv borligi bizning faxrimiz, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sirdaryo tabiiy iqlim sharoitiga mos qovun navlarining bugungi kunda, hatto po‘chog‘i ham chiqitga chiqarilmayapti. Undan chorva uchun ozuqa sifatida foydalanilyapti. Urug‘i esa xorijiy xaridorlarga sotilyapti. Aytishlaricha, undan turli mahsulotlar ishlab chiqarishda zarur bo‘ladigan noyob yog‘ olinar ekan.

Mahallamizdagi oilalarning 70 foizi poliz mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Ko‘p yillik faoliyat asnosida qishlog‘imizda qovunchilik bo‘yicha xalq seleksiyasi va xalqona dehqonchilik texnologiyalari paydo bo‘lgan. Deylik, dehqonlarimiz qovun urug‘ini umuman chetdan olmaydi, imkon qadar, har biri kelgusi mavsum uchun urug‘likni o‘zi tayyorlaydi. Urug‘ eng sara qovunlardan olinadi. Bunda uning shaklidan tortib, to‘rlamasining mukammalligigacha — har bir jihat e’tiborga olinadi.

So‘nggi yillarda mahallamiz dehqonlari o‘rtasida poliz ekinlarini sug‘orishda suv tejamkor usul keng ommalashdi.

Qishlog‘imiz haqida gap ketganda, yo‘l chetidagi qovun bozorlari aytilsa bas, darhol ko‘pchilik taniydi — mahallamiz avtomagistral yonida joylashgan. Hali bu bozorlarni yanada ko‘rkam va fayzli qilish rejalarimiz bor. Shuningdek, mashhur Mirzacho‘l qovunlari navlarini asrab-avaylash, polizchilikda bobodehqon ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan dehqonchilik tajribalarini saqlagan holda unutilgan qovun navlarini tiklab, sohaga yangi ilmiy asoslangan texnologiyalarni joriy etamiz.

Rustam JO‘VOSHEV,
Xovos tumanidagi Oqchangal mahallasi faoli.

RO‘ZG‘ORIMIZ QUT-BARAKASI

Xalqobod — bog‘u rog‘, tutzorlar bag‘ridagi qishloq. Bu yerda uzum, meva-cheva qatori pilla yetishtirishda ham katta tajriba to‘plagan mirishkorlar ko‘p. Nokamtarlik bo‘lmasin-u, mabodo, ana shunday insonlar haqida so‘z ochilsa, oilamiz ham, albatta, tilga olinadi.

Shunday paytda umrim zoye ketmayotgani, xalqimiz koriga yarayotganimni o‘ylab ko‘nglimda shukronalik hissini tuyaman. Ayniqsa, biz yetishtirgan pilladan tayyorlangan ipak matolar jahon bozorida xaridorgirligini aytmaysizmi?!

Bilasiz, ipak qurti parvarishi mavsumi qisqa muddatda kechadi. Lekin u bir yillik mashaqqatli mehnatga teng kuch-g‘ayratni talab qiladi. Huzur-halovatdan voz kechib ishlashga to‘g‘ri keladi. Mehnatingiz samarasini ko‘rganingizda esa mashaqqatlar unutiladi. Ro‘zg‘oringizga qut-baraka inadi.

Buni o‘z faoliyatimiz misolida aytsam, joriy mavsumda to‘rt quti ipak qurti parvarish qilib, 300 kilogramm pilla hosili oldik. Rejadan tashqari qabul qilingan pillaning har kilogrammiga tarozining boshida 45 ming so‘mdan mukofot puli oldik. Bir oyda mo‘may daromad qilib, ro‘zg‘orimizni butladik.

Aytmoqchi, viloyatimizda bahorgi mavsumda 2 700 tonnadan ziyod pilla yetishtirilibdi. Ipak qurti urug‘ini tarqatish jarayonida bizga o‘xshagan kasanachi oilaviy zvenolarga 23 milliard so‘mdan ortiq bo‘nak pullari berilibdi. Shu dalilning o‘ziyoq davlatimiz tomonidan sohani rivojlantirish, pillachilarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga juda katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Bevosita o‘zimga kelsak, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan viloyatda tashkil etilgan tantanali tadbirda bir guruh yurtdoshlarim qatori munosib taqdirlandim. Bu rag‘bat kuchimga kuch, g‘ayratimga g‘ayrat qo‘shadi, albatta.

Xalil AHMEDOV,
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida yashovchi faxriy dehqon.

O‘ZBEK OSHXONASI BRENDI

Guruch — dasturxonimiz ko‘rki va o‘zbek oshxonasining brendi hisoblangan milliy taomlarni tayyorlashda asosiy o‘rin tutuvchi, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega mahsulot.

Xorazm guruchi yillar davomida O‘zbekistonning deyarli barcha bozorida eng xaridorgir bo‘lib kelayotgani ham bejiz emas. Sababi vohaning o‘ziga xos iqlim va tuproq sharoiti, Amudaryo suvi tarkibidagi boy minerallar tufayli ushbu zaminda yetishtirilgan guruch ajoyib ta’m va betakror mazaga ega bo‘ladi.

Guruch yurtimiz hududida qadim-qadimdan ma’lum bo‘lgan. Yillar davomida uning ko‘plab navlari yaratilgan. Xususan, keyingi yillarda sholichilikka ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish natijasida yutuqlar ko‘lami va hosildorlik salmog‘i ortib bormoqda. Yangi navlarni sinash, sara urug‘liklar zaxirasini yaratish va sholi ko‘chatlarini parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqishda Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutining Xorazm filiali jamoasi sholikorlarga yaqindan ko‘makdosh bo‘lib kelmoqda.

Birgina joriy yilning o‘zida filialimizda sholining Xitoy, Filippin, Janubiy Koreya, Vyetnam, Rossiyadan olib kelingan, viloyat tuproq va iqlim sharoitiga mos, istiqbolli va serhosil xorijiy navlari, shuningdek, 27 turdagi mahalliy navlar ekilib, tajriba-sinov ishlari olib borildi. Shulardan Filippindan olib kelingan sho‘rga chidamli, erta va o‘rtapishar, 1 ming dona urug‘ining og‘irligi 30 grammdan ortiq bo‘lgan 10 turdagi navlar tanlab olinib, urug‘lari ko‘paytirildi va kelgusi yil katta maydonlarga ekish rejalashtirilayotir. Filialimizda keyingi uch yilda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ikkita yangi nav yaratilib, davlat nav sinash markaziga topshirildi.

Bugungi kunda viloyatda sholini ko‘chatlab ekish texnologiyasini yanada takomillashtirish, sholizorlarda baliq yetishtirish kabi yangi tajribalar keng ommalashmoqda. Shu bilan bir qatorda, sholi yetishtirishda suvni tejash, vegetatsiya davrida kam suv talab qiladigan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish borasida izlanishlar olib boryapmiz.

Hamza RO‘ZIMOV,
Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutining Xorazm filiali direktori.

QIZILQUM — CHORVADORLAR ZAMINI

Dunyoga “Buxoro qorako‘li” nomi bilan dong taratgan qorako‘lchilikning buguni va ertasi, qadim brendini tiklash endilikda, asosan, Navoiy viloyatining Nurota, Konimex, Tomdi va Uchquduq tumanlaridagi chorvador fermerlar zimmasida, desak, mubolag‘a emas.

Afsuski, sohada bozor konyunkturasini inobatga olmaslik, uzoq yillar biya zardobi (SJK)ning qo‘llanishi, ilmiy tadqiqotlarning xo‘jako‘rsinga olib borilishi ishimizga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Mol bosh soni keskin kamayib, mahsulot — qorako‘l terilar sifatining pasayib ketishi oqibatida samaradorlik yo‘qolib, sohada band bo‘lgan qishloq va ovullarda yuzlab kishilar ish o‘rnini yo‘qotgani rost.

Prezidentimizning 2017-yil 16-martdagi “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori tumanda qorako‘lchilik ravnaqida mutlaqo yangi sahifani ochib berdi. Unga ko‘ra viloyatning chorvachilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarida qorako‘lchilik yo‘nalishida 31 ta shirkat xo‘jaliklaridan 23 tasi fermer xo‘jaligiga, 8 tasi esa mas’uliyati cheklangan jamiyatga aylantirildi. Mulkchilikning yangi shaklida o‘zbek qorako‘li zotli qo‘ylarining sara genofondini saqlab qolish va takomillashtirish vazifasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar zimmasiga yuklatildi.

Sohaning ortga ketishi ko‘p jihatdan yaylovlar holati, ulardan foydalanishda o‘zibo‘larchilikning oqibatidir. Sababi, yaylovning hosildorligi faqatgina yog‘ingarchilikka emas, uni muhofaza qilish, undan oziqlanadigan chorva soni, yaylov almashtirib turishning qat’iyligiga ham bog‘liq. Shu jihatdan 2019-yilning 20-mayida “Yaylovlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi chorvachilik sohasi rivoji yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida hududda “Qorako‘lchilik ilmiy naslchilik tajriba stansiyasi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda Konimex tumanida “Qorako‘l jozibasi” shu’ba korxonasi bazasida qo‘y va qorako‘l terini qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish, chorva ozuqasi yetishtirishni tashkil etish, veterinariya xizmatini zamon talablariga moslashtirish, seleksiyada ilm dargohlari bilan hamkorlikni yuksaltirish kabi vazifalarni belgilab, soha istiqbolini ilmiy va kreativ ishlanmalar asosida tashkil etish borasidagi ko‘rsatmalari dasturilamal bo‘lmoqda.

Xususan, seleksiya yo‘nalishida bir paytlar tashlab qo‘yilgan ilmiy izlanishlar jonlantirilib, Nurota va Konimex tumanlarida yaratilgan qorako‘l qo‘ylarning “Zarmalla” va “Sarjol” navlarini ko‘paytirish va keng qo‘llash, “O‘zbekiston” navini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar o‘z samarasini berayotir. Shu maqsadda o‘tgan davr mobaynida 2500 gektar saksovul va cho‘l o‘simliklari hududlari barpo etilib, 550 gektarlik ozuqabop ekin maydonlari o‘zlashtirildi.

Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda viloyatda joriy yilning o‘tgan davrida 2022-yildagiga nisbatan mol bosh soni 12 mingtaga oshirildi, qorako‘l teri ishlab chiqarish 23 412 donaga yetkazilib, 328 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Sirasini aytganda, amalga oshirilayotgan islohotlar Qizilqumda ham ming-minglab chorvador oilalar farovonligini oshirib, cho‘pon-cho‘liqlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamlamoqda.

Ulug‘bek XALILOV,
Navoiy viloyati Qorako‘lchilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish uyushmasi raisi.

SAUDIYA ARABISTONI O‘ZBEKISTONNING KATTA NUFUZ VA MOLIYAVIY-IQTISODIY SALOHIYATGA EGA BO‘LGAN MUHIM HAMKORI

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 19-iyul kuni Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi va Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilarining birinchi sammiti doirasida Saudiya Arabistonida bo‘lib, Podshohlik valiahdi, Bosh vaziri Muhammad bin Salmon Ol Saud bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Saudiya Arabistoni islom dinining markazi bo‘lib, unda asosiy qadamjolar — Makkada “Al-Haram” va Madinada “Masjid an-Nabaviy” masjidlari joylashgan. Shu bois Podshohlik Haj va Umra safarlarini ado etish uchun butun dunyo, jumladan, O‘zbekistondan keladigan musulmonlar hayotida ahamiyatli o‘rin egallaydi. Ayni damda Saudiya Arabistoni O‘zbekistonni islom sivilizatsiyasi “beshik”laridan biri deb biladi.

Saudiya Arabistonining tashqi siyosati O‘zbekiston kabi boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, Ko‘rfaz mamlakatlari, Arabiston yarimoroli, islom olami bilan aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish, yaxshi qo‘shnichilik bilan yashash prinsiplariga asoslanadi. Shuningdek, mamlakat boshqa davlatlar bilan do‘stona hamkorlik yuritish, xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarda samarali faoliyat olib borish tamoyillariga tayanadi.

“Nigoh — 2030” — ulkan strategik dastur

O‘tgan bir necha o‘n yillar mobaynida Saudiya Arabistonining milliy, madaniy va iqtisodiy kuch asosi faqatgina neft eksporti va energetika sohasi bo‘lib keldi. Uglevodorod eksporti umumiy eksportning 85 foizigacha bo‘lgan hamda davlat daromadlarining katta qismini tashkil etardi. Bugun vaziyat o‘zgardi. Mamlakatda ulkan strategik dastur — “Nigoh — 2030” (“Vision 2030”) amal qilmoqda. Unda Saudiya Arabistonini jahonning rivojlangan 19 davlatidan iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan 15 mamlakati darajasiga olib chiqish, neftga bog‘liq bo‘lmagan eksport ulushini 16 foizdan 50 foizgacha ko‘tarish, neftga bog‘liq bo‘lmagan daromadlarini 163 milliarddan 1 trillion Saudiya rialigacha oshirish kabi vazifalar belgilangan.

“Nigoh — 2030” dasturida ichki iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan birga, mintaqaviy hamda xalqaro miqyosdagi tashqi siyosatga ham alohida urg‘u berilgan. Keyingi yillarda mamlakat tashqi siyosat borasida faollik ko‘rsatib, o‘zining an’anaviy hamkor davlatlari geografiyasini kengaytirishga harakat qilmoqda.

Shunga ko‘ra, Saudiya Arabistoni musulmon dunyosidagi yetakchilik maqomini mustahkamlash, rivojlanayotgan musulmon davlatlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, istiqbolli bozorlarni izlab topish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasiga e’tibor qaratmoqda. U mintaqadagi istiqbolli mamlakatlar sifatida O‘zbekiston va Qozog‘istonni e’tirof etadi. So‘nggi to‘rt yilda Saudiya Arabistoni mintaqaga yo‘naltirgan sarmoyalarining eng katta qismini O‘zbekiston iqtisodiyotidagi turli tarmoqlar, xususan, energetika sohasiga qaratdi. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, yangilanayotgan Saudiya Arabistonining iqtisodiy kelajagi uchun poydevor vazifasini o‘tayotgan “Nigoh — 2030” yangilanayotgan O‘zbekistonning ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘zaro yaqin aloqalar o‘rnatib, mustahkam strategiya doirasida hamkorlik qilmoqda. Rasmiy Toshkent Podshohlikning “Nigoh — 2030” strategiyasini va “EXPO — 2030” xalqaro ko‘rgazmasini o‘tkazish bo‘yicha tashabbusini to‘liq qo‘llab-quvvatladi. So‘nggi yetti yilda O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishni jadallashtirishga qaratilgan rivojlanish strategiyasini amalga oshirmoqda, bu esa kichik va o‘rta korxonalar, ko‘p tarmoqli iqtisodiyotning o‘sishi uchun qulay zamin yaratyapti.

“Yashil” energetika — ustuvor yo‘nalish

O‘zbekiston o‘nlab yillar davomida paxta, oltin, neft va gaz kabi bir nechta asosiy eksport mahsulotlariga tayanib kelgan. Daromad manbalarini diversifikatsiya qilish istagida bo‘lgan mamlakat qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, energetika, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarga xorijiy sarmoya kiritish uchun keng yo‘l ochdi, bu Saudiya Arabistoni kabi davlatlar sarmoyadorlarini o‘ziga jalb etdi. O‘zaro savdo ko‘rsatkichlari, O‘zbekiston iqtisodiyotiga, avvalo, “yashil” energetika sohasiga Saudiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hajmi ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-noyabr kuni Saudiyaning yetakchi “ACWA Power” kompaniyasi bilan amalga oshirilayotgan loyihalar — Sirdaryo viloyatida 1500 megavatt quvvatli zamonaviy bug‘-gaz elektr stansiyasini tarmoqqa ulash hamda Toshkent viloyatida “yashil vodorod”ni “pilot” tarzda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishni boshlash marosimida qatnashdi.

Ta’kidlash joizki, Sirdaryodagi qiymati 1,1 mlrd. dollar bo‘lgan issiqlik elektr stansiyasi loyihasi 3 mln.dan ziyod xonadon va yuzlab sanoat korxonalarining elektr energiyasiga ehtiyojini ta’minlashga imkon beradi. Bundan tashqari, mintaqamizda ilk bor “yashil vodorod” ishlab chiqarish bo‘yicha muqobili yo‘q korxona tashkil etilmoqda. Ushbu “pilot” loyiha doirasida mamlakatimizda birinchi bosqichda 3 ming tonna vodorod ishlab chiqariladi va keyinchalik mineral o‘g‘itlarga qayta ishlanadi, shuningdek, 52 megavattlik shamol elektr stansiyasi quriladi.

Umuman, “ACWA Power” kompaniyasi ishtirokida O‘zbekistonda 7,5 mlrd. dollarlik yirik energetika loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarning ishga tushirilishi 2030-yilga borib 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish, 4,5 mlrd. kub metr gazni iqtisod qilish va atmosferaga zararli moddalar tashlamalarini 3 mln. tonnagacha qisqartirish imkonini beradi. Bu yo‘nalishdagi hamkorlik 2031-yilgacha mamlakat o‘zining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining 40 foizini qayta tiklanadigan manbalardan ta’minlash maqsadiga erishishiga yordam beradi.

Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi ko‘magida sog‘liqni saqlash, ta’lim, suv ta’minoti va boshqa yo‘nalishlarda qator ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilayotir. O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shma fond tashkil etilmoqda. Saudiya delegatsiyasining bu galgi tashrifi doirasida ham kimyo, energetika, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, IT va infratuzilmani rivojlantirish sohalarida 12 mlrd. dollarlik o‘zaro manfaatli loyihalarni uddalash bo‘yicha kelishuvlar imzolandi. Shuningdek, transport infratuzilmasi va kommunal xo‘jaligi, geologiya, irrigatsiya, maishiy chiqindilarni qayta ishlash, oliy ta’lim, mehnat migratsiyasiga aloqador umumiy qiymati 11 mlrd. dollarlik yangi loyiha va dasturlarni ilgari surishga kelishib olindi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi 2018-yilda ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish maqsadida yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan “issiqxona gazlari” chiqindilarini 2030-yilga borib 2010-yildagiga nisbatan 10 foiz kamaytirish bo‘yicha miqdoriy majburiyatni o‘z zimmasiga olib, Parij bitimini ratifikatsiya qilgan. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Energetika vazirligi, “ACWA Power” (Saudiya Arabistoni) va “Air Products” (AQSH) kompaniyalari o‘rtasida mamlakatimizda qayta tiklanadigan energetika hamda vodorod energetikasini rivojlantirish bo‘yicha ochiq kelishuv tuzilgan. Ushbu loyihani amalga oshirish doirasida Saudiya Arabistoni bilan birgalikda quvvati 40 — 50 kVt bo‘lgan tajriba elektr stansiyasini qurish va vodorod energiyasi ishlab chiqarishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganish uchun Saudiya Arabistonidan besh nafar mutaxassisni jalb etish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘istonda Saudiya Arabistoni bilan birgalikda (yalpi quvvati 1500 MVt), Buxoro va Navoiy viloyatlarida (1000 MVt) shamol elektr stansiyalari qurish ishlari boshlandi. Mutaxassislarning baholashicha, Qoraqalpog‘istonda shamol elektr stansiyasining ishga tushirilishi 4 mln. xonadonning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qoplaydi va yiliga atmosferaga 2,5 mln. tonna is gazi chiqishining oldini oladi.

Past uglerodli iqtisodiyotga o‘tishda Saudiya Arabistoni tajribasini qo‘llash ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu, o‘z navbatida, jadal taraqqiy etayotgan O‘zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi navbatdagi qadami bo‘ladi.

Salohiyat va imkoniyatlar hali keng

Keyingi yillarda Saudiya Arabistoni tomonidan O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga kiritilgan sarmoyalar sezilarli darajada oshdi. Hozirda 40 dan ziyod qo‘shma korxonalar mavjud bo‘lib, ulardan 20 tasining faoliyati to‘laligicha Saudiya Arabistoni investorlari mablag‘lari asosida tashkil etilgan. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyat mavjud. Bugungi hamkorlik ko‘rsatkichlari ikki davlatning mavjud salohiyati va imkoniyatlarini aks ettirmaydi. Shu bois O‘zbekiston hukumati Podshohlik bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar sonini ko‘paytirish ustida ish olib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston ham, Saudiya ham oziq-ovqat sanoati va xavfsizligi bo‘yicha yetakchi davlatlardan. Podshohlikka oziq-ovqat mahsulotlari, meva va sabzavotlarni eksport qilish imkoniyati mavjud. Shuningdek, bu yerda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash markazi barpo etib, tayyor tovarlarni uchinchi mamlakatlarga eksport qilishni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Talab katta bo‘lgan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha

korxonalarni birgalikda yaratish to‘g‘risida kelishuvga erishildi. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Islom taraqqiyot banki moliyaviy ko‘magida Mikrokorxonalarning imkoniyatlarini kengaytirish jamg‘armasi tashkil etildi.

2021-yilda O‘zbekistonda Islom taraqqiyot banki va Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish jamg‘armasi O‘zbekiston — Saudiya investitsiyaviy sherikligini yanada kengaytirishning muhim mexanizmlaridan biriga aylandi. Jamg‘arma tomonidan mamlakatimizda ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun 200 mln. dollarga yaqin mablag‘ ajratildi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni davlat investitsiya jamg‘armasi (jami aktivlari 390 mlrd. dollar bo‘lgan dunyodagi eng yirik suveren investitsiya fondlaridan biri) mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya kiritishni O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari nuqtayi nazaridan hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishi, deb hisoblaydi.

Xavfsizlik yo‘lidagi mushtarak maqsadlar

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi serqirra hamkorlik xavfsizlik hamda gumanitar sohalardagi sa’y-harakatlarni ham qamrab olgan. Afg‘onistondagi gumanitar inqirozga barham berish ustuvor yo‘nalishlardan biri — hukumatimiz ushbu mamlakatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli tashabbus va dasturlarni ishlab chiqmoqda. Termiz shahrida afg‘on yoshlariga ta’lim olish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashga ko‘maklashuvchi markazlar tashkil etilgan. Mamlakatimiz Afg‘onistonni imkoniyatlar hududiga aylantirish

> *“Keyingi yillarda Saudiya Arabistoni tomonidan O`zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga kiritilgan sarmoyalar sezilarli darajada oshdi. Hozirda 40 dan ziyod qo`shma korxonalar mavjud bo`lib, ulardan 20 tasining faoliyati to`laligicha Saudiya Arabistoni investorlari mablag`lari asosida tashkil etilgan.”*

qo‘shma korxonalarni ko‘paytirish maqsadidagi sanoat kooperatsiyasi va mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish iqtisodiy sohadagi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga kuchli turtki beradi. Misol tariqasida “Saudi Aramco” kompaniyasining O‘zbekistonda neft va gazni qidirish, qazib olish hamda qayta ishlashga jalb etilishini keltirish mumkin.

Hozirgi paytda Saudiyaning “Al-Habib Medical Group” va “ACWA Power” kabi yetakchi kompaniyalari bilan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi va oshirilmoqda. “Al-Habib Medical Group” ko‘magida barcha tibbiy ma’lumotlarni hamda bemorlar bilan o‘zaro aloqa qilish jarayonlarini raqamlashtirish va markazlashtirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar yurtimizning sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimiga joriy etilayotir. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash uchun “Al-Habib Medical Group” tibbiyot akademiyasi ochiladi. Shuningdek, Saudiya shifoxonalarida tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Ayni chog‘da “SABIC” kompaniyasi bilan amaliy hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda, bu maqsadda mamlakatimizda MTO (metanoldan olefin olish) va MTR (metanoldan propilen ishlab chiqarish) texnologiyalaridan foydalangan holda investitsiya loyihalarini, shuningdek, kimyoviy o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan yangi quvvatlarni yaratish loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Saudiyaning “Savola Group”, “SALIC”, “Almarai”, “Tamimi Group” kabi yirik kompaniyalari bilan O‘zbekistonda yuqori texnologiyali issiqxona xo‘jaliklari va meva-sabzavotni qayta ishlagan holda talab yuqori bo‘lgan bozorlarga eksport qilish bo‘yicha uchun rekonstruksiya dasturlarini taklif qilmoqda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ko‘maklashish ustida ishlayapti. Hamkor davlatlar, xususan, Saudiya Arabistoni O‘zbekistonga bu yo‘nalishda yordam bermoqda va qo‘llab-quvvatlamoqda.

Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon 2021-yil iyul oyida Toshkentda o‘tkazilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzuidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etgani, 2022-yil iyul oyida Saudiya Arabistoni delegatsiyasi Toshkentda uyushtirilgan “Afg‘oniston: Xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” mavzuidagi xalqaro konferensiyada qatnashgani buning yaqqol isbotidir. Tomonlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklif va tashabbuslarini amalga oshirish, xususan, Mozori-Sharif — Hirot temir yo‘li va Surxon — Puli-Xumri elektr uzatish liniyalarini qurish bo‘yicha ham hamkorlik qilmoqda. Saudiya Arabistoni Samarqand — G‘uzor avtomobil yo‘lining bir qismi qurilishini moliyalashtirishda ishtirok etdi.

Saudiya Arabistoni Podshohligi va O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Ummon — Qatar xalqaro transport yo‘lagi doirasida o‘zaro hamkorlik qilmoqda, bu ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni faollashtirishga imkon beradi, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining jahon bozorlariga chiqishiga va Ko‘rfaz davlatlari, jumladan, Saudiya Arabistoni Podshohligi bilan hamkorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Shu nuqtayi nazardan, Saudiya Podshohligi katta iste’mol bozoriga ega ekani va o‘zbek oziq-ovqat, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportchilari uchun yaxshi imkoniyat yaratishini hisobga olish muhim. 35 milliondan ziyod aholi istiqomat qiladigan Saudiya Arabistonida olib borilayotgan siyosat iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida davlat ishtiroki mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, milliy xususiy kapital faolligini kengaytirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu ma’noda, mamlakat iqtisodiyotini xomashyo qaramligidan maksimal darajada chiqarishga qaratilgan “Nigoh — 2030” dasturini amalga oshirish bo‘yicha Saudiya Arabistoni tajribasi katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu mamlakat ijtimoiy siyosati aholiga ijtimoiy kafolatlar yaratib berish, yoshlar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash va subsidiyalashni o‘z ichiga oladi. Bu siyosat hozirgi bosqichda sanoat sohasida va iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlash uchun milliy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni rag‘batlantirish bilan uzviy bog‘liq.

O‘xshash jihatlar — tarixiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlar, shuningdek, kuchli moliyaviy-iqtisodiy resurslar mavjudligi tufayli Saudiya Arabistoni O‘zbekiston Respublikasi uchun nihoyatda jozibador mamlakat hisoblanadi. Har ikki mamlakatni, garchi ular chegaradosh bo‘lmasa-da, yuzlab yillar davomida din va ma’rifat, ilm-fan hamda madaniyat bog‘lab kelyapti. Islom olami taraqqiyoti va butun insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan Ibn Sino, Muhammad Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Zamaxshariy va boshqa buyuk mutafakkir ulamolar merosini har ikki mamlakat xalqlari qadrlab, o‘rganadi.

O‘zbekiston va arab davlatlari, xususan, Saudiya Arabistoni o‘rtasida havo qatnovining rivoj topayotgani, viza qoidalarining yengillashayotgani natijasida o‘zaro madaniy almashinuv bugungi kunda yanada izchillik kasb etayotir. “FlyNas” aviakompaniyasi va “Uzbekistan Airways” AJning o‘zaro parvozlari ko‘paygan hamda Saudiya Arabistoni fuqarolari uchun 30 kunlik muddatga O‘zbekistonga kirish vizasidan ozod qilingan. Ushbu mamlakat qator sayyohlik kompaniyalari Podshohlikdan O‘zbekistonga sayyohlarni yuborishdan manfaatdor. Xususan, “Zahid Travel Group” agentligi davlat idoralari yoki xususiy sektor sayyohlarining O‘zbekistonga sayohatlarini tashkil etishni rejalashtirmoqda. Bunga “Uzbekistan Airways” AJ va “FlyNas” aviakompaniyasi o‘rtasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha imzolangan o‘zaro anglashuv memorandumi ham yordam beradi. Shuningdek, ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan ikki mamlakat sayyohlik idoralari o‘rtasida hamkorlikning qo‘shma dasturi ham ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatlarning mehnat munosabatlari sohasidagi hamkorligi ham yaxshi istiqbolga ega. Shu maqsadda tomonlar ikki mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari sharoitida malakali mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda mehnat masalalari bo‘yicha amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydigan tashqi mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitimni imzolashdan manfaatdor.

Ikki mamlakat ishbilarmon doiralarini yanada yaqinlashtirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, O‘zbekiston va Saudiya Arabistonining yetakchi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar biznes hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish uchun asos bo‘lmoqda. Bu ichki iste’molning yuqori hajmi hisobiga shakllanayotgan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqarishni ko‘paytirish, hududiy va tashqi bozorlarga chiqish imkonini beradi.

Umuman, ushbu mamlakat delegatsiyasining tashrifi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlar ko‘p qirrali O‘zbekiston — Saudiya Arabistoni munosabatlari rivojini yangi bosqichga ko‘taradi, xususan, qo‘shma dastur va loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish, jumladan, yurtimizda investitsiya kompaniyalari va mikromoliya tashkilotlarini tashkil etishni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Muhsin HOJIYEV,
Guliston davlat universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor.

OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR

1 2026-yili O‘zbekistonda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasini o‘tkazish rejalashtirilgan. Ishonamizki, mazkur nufuzli musobaqada ham o‘zbek shaxmat maktabi vakillari o‘z so‘zini aytadi. Muhimi, olimpiada tantanalarida madhiyamiz jaranglaydi.

Jahon arenalarida yurtingiz sharafini himoya qilar ekansiz, madhiyamiz ilhom, kuch-qudrat manbai ekanini his etasiz. Bu tuyg‘u g‘olib bo‘lishga, yurt bayrog‘ini baland ko‘tarib, qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib, madhiyani jo‘shib kuylashga undaydi. Va musobaqaning barcha ishtirokchilari xalqimizning muqaddas va qudratli qo‘shig‘iga jo‘r bo‘ladi:

Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Muhimi, bugun Vatanimizning bu muqaddas qo‘shig‘i har birimizning milliy g‘ururimizga, faxru iftixorimizga, hayotimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylanib, ongu qalbimizdan mustahkam joy oldi.

Jahongir VOHIDOV,
44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi.

O‘ZBEKISTON XALQINING FAXRU IFTIXORI

1 Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan, shuningdek, dunyoning turli nuqtalaridan O‘zbekiston xalqi nomiga samimiy tabriklar yo‘llanmoqda. Ularda Vatandan uzoqda bo‘lgan yurtdoshlarimiz va o‘zbek xalqining chin do‘stlarining samimiy dil qutlovlari o‘z aksini topgan.

Kozimjon VAHOBOV,
vatandoshimiz, Malayziyaning
“Datamicron Sdn Bhd”
kompaniyasi xodimi:

— Odatda eng muqaddas tuyg‘ular haqida so‘z ketganda, avvalo, tug‘ilib o‘sgan Vatanimizni tilga olamiz. Darhaqiqat, Vatandan o‘zga najot, xalq mehridan ulug‘roq saodat yo‘q.

Ayni paytda men Malayziyada axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasida faoliyat olib boraman.

Vatandan olisdaligim sababli har safar O‘zbekiston madhiyasini tinglaganimda qalbimda cheksiz faxr va sog‘inch tuyg‘ulari jo‘sh uradi. Madhiyamizda O‘zbekistonning mustaqilligi hamda mehmondo‘st xalqimizning pokiza orzu-intilishlari, ishonch va maqsadlari mujassam topgan, deb hisoblayman.

Muxtasar aytganda, davlatimiz madhiyasi yurtimizning boy tarixi va madaniy merosini o‘zida aks ettirgan. U men kabi xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarga doimo kuch-quvvat bag‘ishlaydi.

Fursatdan foydalanib, yurtdoshlarimizni o‘zim va Malayziyadagi barcha vatandoshlar nomidan O‘zbekiston madhiyasi qabul qilingan kun bilan muborakbod etaman.

Yaponiyaning “Silk Road Band” musiqiy guruhi vokalisti Mixo Ogata o‘zining bayram tabrigida O‘zbekiston xalqiga tinchlik osoyishtalik va ravnaq tilash barobarida, o‘zbek madaniyati va tarixiy merosiga yuksak baho berdi.

O‘SH SHAHRIDA O‘ZBEKISTON BOSH KONSULLIGI OCHILDI

O‘sh shahrida O‘zbekiston Bosh konsulxonasining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda asosiy mehmon sifatida Qirg‘iziston Prezidentining O‘sh viloyatidagi vakolatli vakili Elchibek Jantayev ishtirok etdi. Tadbir O‘zbekiston Davlat bayrog‘ini ko‘tarish marosimi va ikki davlat madhiyalari ijrosi bilan boshlandi.

Do‘stlik rishtalari

O‘zbekiston elchisi Xurshid Mirzohidov o‘zining qutlov so‘zida tarixiy voqea — O‘sh shahrida mamlakatimiz diplomatik vakolatxonasining ochilishi O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida diploma-tik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi nishonlanayotgan yilda bo‘lib o‘tayotganini ta’kidladi. Diplomatik missiya rahbari, shuningdek, O‘sh shahrida Bosh konsulxonaning ochilishi O‘zbekiston tomonining Qirg‘iziston bilan strategik munosabatlarni chuqurlashtirish va kengaytirish istagini yana bir bor tasdiqlashini qayd etdi.

Elchibek Jantayev o‘z nutqida yig‘ilganlarni respublikaning eng muhim bayramlaridan biri — Konstitutsiya kuni bilan tabriklar ekan, O‘zbekiston xalqiga tinchlik va farovonlik tiladi.

— O‘sh shahrida O‘zbekiston Bosh konsulligi tashkil etilgani tomonlarning ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari va o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan mushtarak intilishlarining ifodasidir, — dedi Qirg‘iziston Prezidentining O‘sh viloyatidagi vakolatli vakili. — Qirg‘iziston janubida ushbu konsullik idorasining mavjudligi mamlakatimizning mazkur hududida joylashgan O‘zbekiston fuqarolarining hayotiy muammolarini tezda hal etishga xizmat qiladi.

O‘sh davlat universiteti professori Baybolot Abitov o‘z chiqishida Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi ikki tomonlama do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari barcha sohada rivoj topib borayotganini qayd etdi.

— Bugungi kunda mamlakatlarimiz o‘zaro hamkorlik qilmagan biror soha yo‘q, — dedi Baybolot Abitov. — O‘sh shahrida O‘zbekiston Bosh konsulxonasining ochilishi o‘zaro hamkorligimizni kengaytirish va faollashtirish, fan hamda ta’lim sohalarida o‘zaro almashinuvlarni yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Bosh konsulxonaning ochilishi O‘zbekiston Asosiy Qonuni qabul qilingan kunga to‘g‘ri kelgani ham quvonarlidir. Fursatdan foydalanib, qardosh O‘zbekiston fuqarolarini Konstitutsiya kuni bilan tabriklayman.

Tadbir yakunida taqdim etilgan o‘zbek milliy kuy va qo‘shiqlari hamda raqslaridan tuzilgan madaniy dastur barchaga xushkayfiyat ulashdi.

“Dunyo” AA.

Xalq so‘zi
www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz
2023-yil 10-dekabr

ERISHILAYOTGAN YUTUQLAR, NATIJALAR E’TIROFI

Ayni kunlarda O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 31 yilligi munosabati bilan mamlakatimizning barcha hududida, viloyat, tuman (shahar) markazlari, turli tashkilot va idoralar, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil qilinmoqda.

Tadbirlarda yangi tahrirdagi Bosh qomusimiz mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida to‘xtalib, bugungi kunda turli sohalarda erishilayotgan yutuqlar e’tirof etilayotir.

Shukuh

Xorazm viloyatining Urganch shahridagi viloyat musiqali drama teatri binosida o‘tkazilgan asosiy bayram tantanalarida mehnat faxriylari, yoshlar, davlat va jamoat tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va keng jamoatchilik vakillari jam bo‘ldi.

— Bugun yurtdoshlarimizning yuz-ko‘zida quvonchni ko‘rasiz, mamnunlikni his etasiz, — deydi Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi, Prezident stipendianti Ozoda Ismoilova. — Buning boisi Bosh qomusimizning 31 yilligini keng nishonlayapmiz. Bu juda katta faxr, aslida.

Bilasizmi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilangan. Buning isbotini mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida xalqimizni rozi qilish, inson qadrini ulug‘lash borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarda ham ko‘rishimiz mumkin. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyil ham Bosh qomusimizda belgilangan ana shu qoidalarga hamohangdir.

Bayram tantanalari viloyat san’at ustalari ijrosidagi katta konsert dasturi bilan davom etdi.

Bundan bir necha kun muqaddam Buxoro shahrida Konstitutsiya ko‘chasi tashkil etilgandi. Viloyat hokimligi hamda adliya boshqarmasi tashabbusi bilan mazkur go‘sha o‘ziga xos muloqot manziliga aylandi.

Ushbu ko‘chada Asosiy Qonunimiz qabul qilingan kun munosabati bilan targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi. O‘shlar, davlat tashkilotlari, jamoatchilik vakillari ishtirokida kechgan muloqotda talabalar o‘rtasida qonunchilikka oid bilimlar bellashuvi uyushtirildi. Shu tariqa to‘planganlar o‘zlarining Asosiy Qonunimizga oid bilim va tushunchalarini boyitib olishdi. Harbiy qism askarlarining ko‘rgazmali chiqishlari esa tadbirga o‘zgacha ruh bag‘ishladi.

Targ‘ibot tadbirida faol qatnashgan yoshlarga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kitobchalari tarqatildi.

Samarqand viloyati musiqali drama teatrida o‘tkazilgan bayram tadbirida sanaga bag‘ishlab tayyorlangan videorolik namoyish qilindi. Unda Konstitutsiya bergan imkoniyatlar natijasida yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar o‘z ifodasini topdi.

Qayd etilganidek, qutlug‘ ayyom arafasida o‘tkazilgan “Konstitutsiya haftaligi” doirasida viloyat mahallalarida bunyod qilingan yangi obyektlar tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Masalan, birgina Ishtixon tumanidagi Chag‘atoy mahallasida biryo‘la 15 ta obyekt ishga tushdi.

— Mahalla fuqarolar yig‘ini yangi binosi, hududdagi asfaltlangan Nog‘orchi, Qizilquloq, Chag‘atoy, Qo‘ng‘irot qishloqlarining ichki yo‘llari, mahalla tibbiyot punkti, xotin-qizlar bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazi, dam olish maskani, savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish obyektlari, uchta avtobekat, “Shodlik” oilaviy bog‘chasi shular jumlasidan, — deydi mahalla raisi Sayfiddin Xolmamatov. — Bularning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning chekka hududlarda ham o‘z samarasini berayotganligining yorqin isbotidir.

Bayram tadbiri san’at ustalari hamda ko‘rgazmali chiqishlar bilan yanada fayzli o‘tdi.

Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi “Bilimdonlar maskani”da sanaga bag‘ishlab, ko‘rgazma va taqdimotlar o‘tkazildi.

Viloyat tashkilot va idoralari vakillari bu yerda fuqarolarga ularning huquqiy bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan bukletlar tarqatdi. Xususan, Sirdaryo viloyati bojxona boshqarmasi xodimlari tomonidan tashrif buyuruvchilarga tovarlarning eksport-import operatsiyalarida bojxona rasmiylashtiruv tartib-tamoyillari hamda ularga qo‘llanilayotgan imtiyozlar to‘g‘risida tushunchalar berildi.

Shuningdek, “Konstitutsiya ko‘chasi” tadbirida konsert dasturi va teatrlashtirilgan tomoshalar ham bo‘lib o‘tdi. Fuqarolarning Bosh qomusimizga oid bilimlari sinovi bo‘yicha o‘tkazilgan viktorina g‘oliblari Konstitutsiya kitobi va boshqa sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Viloyat musiqali drama teatrida bo‘lib o‘tgan bayram tadbirida Bosh qomusimiz bugungi baxtli hayot va nurli kelajagimiz timsoli, Vatan taraqqiyoti, yurtimizdagi har bir inson huquq hamda erkinliklarini kafolatlovchi asosiy hujjat ekanligi alohida e’tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erishilgan yutuqlarning mustahkam tayanchi sifatida ushbu tarixiy hujjat qabul qilingan kun Navoiy viloyatida ham keng nishonlandi.

E’tiborlisi, bayram arafasida viloyat bunyodkorlari tomonidan o‘nlab ijtimoiy soha obyektlari va madaniy-maishiy inshootlar foydalanishga topshirilib, saxovatpesha va mehr-oqibatli kishilar ko‘magi bilan yuzlab oilalarga bayram kayfiyati tuhfa etildi.

Chunonchi, quruvchilar viloyatning beshta hududida “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” tamoyili asosida mahalla fuqarolar yig‘inlarining yangi binolari ramziy kalitlarini topshirgan bo‘lsa, Navoiy shahridagi 4 va 21-umumta’lim maktablari, Karmana tumanidagi 7-davlat maktabgacha ta’lim muassasasi mutlaqo yangi qiyofada yoshlarni qabul qiladigan bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

BAG‘RIKENGLIK TAMOYILI ASOSIDA

1 Shu bilan birga, yurtimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining, xalqimizga xos bag‘rikenglik, oliyjanoblik va kechirimlilik kabi ezgu fazilatlarning amaliy namunasi hamdir.

Farmon bilan afv etilgan shaxslarning 34 nafari asosiy jazodan to‘liq, 249 nafari esa muddatidan ilgari shartli ozod qilindi. 6 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. 45 nafar shaxsga esa tayinlangan jazo muddatlari qisqartirildi.

Umuman, ushbu Farmon insonparvarlik, ezgulik va rahmdillikning yorqin ifodasi sifatida mahkumlarda qonunga itoatkorlik hissini rag‘batlantiradi va qonunni chetlab o‘tgan shaxslarga tuzalish, oilasiga qaytish hamda jamiyatning munosib a’zosi bo‘lish uchun yana bir imkoniyat beradi. Shu nuqtayi nazardan, endilikda jazodan ozod etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishi uchun ularga ko‘mak berish tegishli idora va tashkilotlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklashini unutmasligimiz lozim.

Mavjuda HASANOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MILLIY O‘ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK G‘OYALARI FIDOYILARI

Shu yilning 11-12-dekabr kunlari yurtimizda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzuida xalqaro konferensiya uyushtiriladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishida ushbu xalqaro anjuman haqida so‘z yuritib, tuzilmaga a’zo mamlakatlar vakillarini unda faol qatnashishga taklif etgandi.

Konferensiya oldidan

O‘zbekistonlik hamda chet ellik taniqli olimlar, tarix, madaniyat, adabiyot sohalari fidoyilari qatnashadigan nufuzli konferensiyada jadidchilik harakati g‘oyasi, maqsad va vazifalarini izchil o‘rganishda yangi insaydlar, harakatning ta’lim va noshirlik sohalari rivojidagi hissasi, milliy davlatchilikni shakllantirish bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy qarashlari va intilishlari, shuningdek, jadidlarning ilmiy va madaniy merosi, ularning tadqiqotlari borasida fikr almashiladi.

Zotan, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish g‘oyasi texnologik taraqqiyot va ilg‘or bilimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Ijodiy fikrlaydigan, iste’dodli va shijoatli yoshlarimiz istiqbolda turkiy dunyoning yangi Renessansini barpo etishiga ishonchimiz komil. Bu yo‘lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy kashfiyotlar va ma’naviy meros mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Ulug‘ bobomiz Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zidan ana shunday ulkan meros qoldirgan, mamlakatimizda milliy uyg‘onish harakati asoslarini yaratgan jadidlarning yetakchi rahnamosi edi.

O‘tgan asr boshlarida Rossiya “oq poshsho”sining o‘lkadagi mustamlakachilik siyosati sabab Vatan taqdiri, xalqning ijtimoiy turmushi og‘ir va murakkab ahvolga tushgandi. Ulug‘ alloma bu holatni o‘nglash uchun, avvalo, mutaassiblashib, taraqqiyotdan orqada qolgan xalq maorifini isloh qilish, diniy-dunyoviylikka asoslangan ta’lim tizimini yaratish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. U 1901-yilda 23 yoshida o‘z uyida pullik jadid maktabini ochadi. Unda bolalar olti oyda o‘qish va yozishni o‘rganib, savod chiqarishar edi. Eski an’anaviy maktablarda esa bolalarning savod chiqarishiga besh yil vaqt sarflanardi.

Munavvar qori maktabidan andoza olgan jadid maktablari nafaqat Toshkent, balki butun Turkiston, hatto undan tashqarida ham birin-ketin ochilib, ko‘paya boshladi. O‘z mehnatidan qoniqish hosil qilgan va ilg‘or usulning samarasini chuqur his etgan Munavvar qori Abdurashidxonov birgina maktab bilan cheklanmay, yana bir-ikki joyda ta’lim dargohlari ochib, ularga boshqa jadid o‘qituvchilarni jalb qiladi. 1908-yilda ikki yillik rushdiya — “yetuk”, “mukammal” degan ma’noni anglatuvchi jadid maktabini ochib, hozirgi milliy o‘rta maxsus ta’limga asos soladi.

Bu maktab tezda “Namuna” degan nom bilan mashhur bo‘lib, boshqa joylarga tarqaladi, hatto sovet davrida ham asqatadi. Munavvar qorining maktablarida diniy va dunyoviy ilmlar o‘zaro uyg‘unlikda chuqur o‘qitilgan. Rushdiya maktabini bitirgan yoshlar rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o‘qib, malakali kadr bo‘lishi, mahalla masjidlarida imom lavozimida ishlashi, tashkilotlarda ish yurituvchi vazifasida faoliyat ko‘rsatishi mumkin edi.

Munavvar qori jadid maktablari uchun “Adibu avval” (Alifbo) darsligi, “Adibussoniy” o‘qish kitobi, “Yer yuzi”, 3 va 4-sinflar uchun geografiya, “Havoyiji” (hisob), “Til saboqlari” darsliklari, “Tajvid” Qur’oni karimni o‘qishga o‘rgatish va “Sabzazor” (adabiy to‘plam kitoblari) kabi darsliklarni yaratdi. Ular qayta-qayta chop etilib, yillar davomida juda keng geografik hudud bo‘ylab tarqaldi.

Ulug‘ alloma diniy-dunyoviy ta’limotning yetuk bilimdoni sifatida faoliyat yuritadi. 1906-yil 14-iyunda “Taraqqiy” gazetasida bosilgan “Bizni jaholat — jahli murakkab” nomli maqolasida: “Ko‘p dindoshlarimizni ko‘ramizki, o‘z farzandlarini aslo maktabga bermay, dunyoi va oxirati saodati o‘lg‘an ilm va maorifdin mahrum qilmoqdan hech bir ibo qilmaslar”, deydi. Ayni chog‘da taraqqiyot va inqiroz sabablarini yaxshi bilgan olim shunday yozadi: “Endi o‘z holimiz va o‘z tariximizga boqsak, bir vaqtlar Ovrupo vahshiy ekan, biz madaniy edik... So‘ngralari Ovrupo xalqi maorif va madaniyat yo‘lida ishladi, bu holg‘o erishdi; biz tushdik, uxladik, bu holg‘a yetushduk. Bugun Ovrupo xalqi osmongacha uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jug‘rofiya va tibbiyot o‘qitish, o‘qitmaslik ixtiloflari davom etadi”.

Munavvar qori Abdurashidxonov faqat jadid maktabi, maorifi va ta’lim-tarbiyasi bilangina cheklanmay adabiyot, jurnalistika, nashriyot, umuman, o‘sha davr siyosatiga ham millat manfaati nuqtayi nazaridan yondashdi va birgina Turkistonda emas, balki O‘rta Osiyo, Rossiya hamda Turkiyada ham tanildi.

Buyuk jadid bobomiz chor Rossiyasi ag‘darilib, sovet hokimiyati o‘rnatilgach, dastlab uni qo‘llab-quvvatlab bolshevistik firqaga kiradi, Toshkentning eski shahar firqasi bo‘limini boshqaradi. Milliy musulmon xalq maorifi tizimi yaratilishi, kommunistik firqa milliylashtirilishi, milliy muxtoriyat hukumati — Turkiston muxtoriyati tashkil etilishi va boshqa ishlarda faol qatnashadi. Lekin kommunistik mustamlaka hokimiyati jadidlar faoliyatini cheklab, qatag‘onlik siyosatini boshlaydi.

Bolsheviklarning yovuz maqsadi va niyatlaridan voqif bo‘lgan Munavvar qori Abdurashidxonov bu tuzumdan yuz o‘giradi, sovet hokimiyatiga qarshi aksilsho‘ro maxfiy milliy tashkilot tuzadi. Kommunistik bosqinga qarshi boshlangan bosmachilik harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Olimning Farg‘ona vodiysiga borib qo‘rboshilarni birlashtirishga harakat qilgani va ularga saboq bergani borasida tarixiy ma’lumotlar mavjud.

1929-yilda sovet maxfiy tashkiloti “Munavvar qori to‘dasi” degan nom bilan 87 kishini yashirincha qamoqqa oladi. 1931-yilda ularning 15 nafari Munavvar qori bilan birgalikda otuvga hukm qilinadi. Qolganlari esa har xil muddatlar bilan uzoq va sovuq o‘lkalarga surgun etildi.

Munavvar qori va uning izdoshlari fojiasi haqidagi xabar dunyoga tarqaldi. Mustafo Cho‘qayning Parijda nashr qilinib turgan “O‘sh Turkiston” jurnalining 1934-yil yanvar sonida Munavvar qori hamda jadidlar haqida xotira va maqolalar bosildi.

Buyuk jadid bobomizning millat va Vatan ozodligi, taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirgan buyuk xizmatlarini, ularning naqadar cheksizligini nainki yoshlarimiz, katta avlod vakillari ham to‘laqonli anglamaydi. Hatto Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining milliy asosi yaratilishiga tamal toshi qo‘yilganidan ko‘pchilik bexabar.

Gap shundaki, Munavvar qori Abdurashidxonov Toshkent shahar dumasiga a’zo bo‘lib saylangach, rus olimlari bilan hamkorlikda Toshkentda universitet ochish faollaridan biriga aylandi. Duma 1917-yil 21-avgustda Toshkentda universitet tashkil etish haqida qaror qabul qilib, uning tashkiliy komissiyasini tuzadi. U shuningdek, universitet o‘quv dasturini ishlab chiqishda musulmonlar uchun tarix va sharqshunoslik fakultetlari moslashtirilishini talab etadi. Turkiston sovet hukumati 1918-yil 16-martida Toshkentda xalq universitetini ochish haqida maxsus qaror qabul qiladi. Ammo unda mahalliy xalq manfaati aslo e’tiborga olinmaydi.

Hukumat qaroridan voqif bo‘lgan Munavvar qori juda katta jasorat va tashabbuskorlik bilan o‘sha yili 9-aprelda o‘z uyida musulmon madaniy-ma’rifiy jamiyatlari vakillarini yig‘ib, Musulmon xalq dorilfununi ochish haqida ilk bor maxsus muzokara o‘tkazadi. Yig‘ilganlar buni qo‘llab-quvvatlab, Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligida 9 kishidan iborat Musulmon xalq dorilfununining tashkiliy komissiyasini tuzadi. Uning tashabbusi va talabini mahalliy hukumat ma’qullab, komissiyani rasman tan oladi. Uning a’zolariga 9-apreldan boshlab bajargan ishlarining mazmuni va ko‘lamiga qarab, 200 dan 450 so‘mgacha maosh berish belgilanadi. 3-mayda tashkiliy komissiyaning navbatdan tashqari kengaytirilgan majlisi bo‘ladi. Unda Musulmon xalq dorilfununi rahbariyati (“idorasi hay’ati”)ga saylov bo‘ladi. Munavvar qori Abdurashidxonov rais (rektor) etib saylanadi.

Munavvar qori rahbarligidagi ta’lim fidoyilarining cheksiz xizmati ila 1918-yil 12-may kuni Musulmon xalq dorilfununining tantanali ochilish marosimi bo‘ladi. Munavvar qori tadbirni ochib, musulmonlar chorizm davrida rus yo‘qsillari bilan birgalikda yarim asr qullikda yashaganini, ozodlik katta talafotlar evaziga qo‘lga kiritilganini alohida ta’kidlab, “Xalqning ilmga ko‘p ziyoda muhtojligi... qonlarini to‘kib olg‘on hurriyatidan so‘ng turkistonliklarga ham o‘qimoqqa imkon topilgani” haqida otashin nutq so‘zlaydi.

Xullas, 1918-yil 12-mayda Munavvar qorining sa’y-harakati ila zamonaviy milliy oliy ta’limga to‘la asos solindi, aniqrog‘i, hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining asosi to‘la-to‘kis yaratildi. Buyuk mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy 1914-yilda “Oyina” jurnalida mushtariylarning “Qachon zamonaviy ilm-ta’lim tashkil etiladi?” degan savoliga javob berib yozgan edi: “Toshkentdagi Munavvar qori maktabi mana shunday oliy tahsilga zamin bo‘la olishi mumkin”.

Musulmon xalq dorilfununini Munavvar qori boshchiligidagi 45 kishilik kengash boshqardi. Uning muallimlari 299 kishiga yetadi. Shulardan 22 tasi oliy diniy madrasalarni, 2 tasi Rossiya universitetini bitirgan edi.

Musulmon xalq dorilfununi — universitet tarixan mustaqil ravishda tashkil etilib, keng miqyosda faoliyat yuritdi. Buni uning nomi yozilgan rasmiy blankasi va muhri (pechati) isbotlab turibdi. Masalan, rais (rektor) Munavvar qori Abdurashidxonov 1918-yil 3-iyulda Toshkentning eski shahar Ijroiya qo‘mitasiga dorilfunun blankasida maxsus xat yozib, unga imzo chekkan va muhr bosgan. Xatda dorilfunun o‘qituvchilari uchun transport — izvosh so‘ragan. Yana bir xatda Burhon Habib va yana bir kishi dorilfunun faoliyatini yoyish, targ‘ib qilish maqsadida Chimkent shahri hamda uning uyezdlariga poyezdda tekin borishlari uchun hukumatdan ruxsat so‘ralgan. Bu hujjatlar arxivda mavjud.

Afsuski, 1922-yilda markazdan oliygohni yopish haqida ko‘rsatma beriladi. Bu mustamlakaga aylangan Turkiston ahlini savodli qilishga qarshi boshlangan manfur harakatlarning boshlanishi edi. Lekin universitet saqlab qolinadi. Buning uchun oliygohning ma’lum xizmatlari pullik qilinib, Buxoro va boshqa musulmon sovet respublikalariga mutaxassislar tayyorlab berish uchun pullik shartnomalar tuziladi.

Tarix guvoh, Munavvar qori Abdurashidxonov juda murakkab va o‘ta tahlikali davrda ongli ravishda behad katta jasorat bilan, hayotini garovga tikib, millat va Vatanni mustamlakachilik balosidan qutqarishga, ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan xalqning ko‘zini ochishga intildi.

Bugun yangilanayotgan O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasida jadal islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda ana shu ezgu yo‘lda jon fido qilgan jadid bobolarimizning ham ruhi shod bo‘lmoqda, niyatlari ro‘yobga chiqayotir. Shu o‘rinda taklifimiz shuki, Munavvar qori Abdurashidxonov amalga oshirgan ezgu ishlarni yana bir bor urg‘ulash, yosh avlodni ma’rifatparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Milliy universiteti ulug‘ alloma nomi bilan qayta nomlansa, ham adolatli, ham savobli ish bo‘lar edi. Bundan, albatta, buyuk olim Mirzo Ulug‘bekning ardoqli nomi zavol topmaydi, deb o‘ylaymiz.

Yurtimizda o‘tkaziladigan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzuidagi xalqaro konferensiya Munavvar qori hamda boshqa jadid bobolarimiz hayoti, faoliyatini yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etishda samarali platformaga aylanishiga ishonchimiz komil.

Sotimjon XOLBOYEV,
tarix fanlari nomzodi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Sherqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41.
Topshirildi — 21.33 1 2 3 4 5 6